


QORAQALPOG`ISTON RESPUBLIKASINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-aprel)


Qoraqalpog`iston Respublikasi bo`yicha joriy yilning yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 1 585,2 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 8,1 %ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 212,7 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 171,3 %), kichik tadbirdorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 1 372,5 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 102,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 81,0 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 96,2 %) tashkil etdi.

Tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so`m)



2018 yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o`sish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o`sish sur`atlari Nukus shahri, Beruniy, To'rtko'l va Amudaryo tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Nukus shahri (respublika umumiy hajmiga nisbatan ulushi - 30,5 %), Beruniy (9,6 %), Xo'jayli (9,4 %), To'rtko'l (8,8 %) va Qo'ng'iroq (7,2 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 71,3 %ga o'sdi va 212,7 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 13,4 %iga to`g`ri keladi.


Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra 1 372,5 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 2,3 %ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 86,6 %ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)

2018 yil
yanvar-aprel




2019 yil
yanvar-aprel



Yirik korxonalar
 Kichik tadbirdorlik

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirdorlikning ulushi, (%)



Kichik tadbirdorlik
 Yirik korxonalar

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirdorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Qonliko'l (99,7 %), Qorao`zak (99,6 %), Nukus (99,3 %), Kegeyli (99,3 %) va Taxtako`pir (99,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 13,4 %ni tashkil etib, eng katta ulush Nukus shahrida (33,9 %), Taxiatsosh (20,6 %) va To`rtko'l (10,8 %) tumanlarida kuzatilgan.

Kichik tadbirdorlik va yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirdorlik (mln.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Qoraqalpog`iston Respublikasi	212 703,1	171,3	1 372 463,3	102,3
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	5 696,0	85,7	102 453,2	107,5
Beruniy	3 645,0	99,9	148 697,7	106,9
Qonliko'l	111,2	2,1 k	41 096,5	105,0
Qorao`zak	193,0	72,7	54 480,9	105,5
Kegeyli	236,1	113,6	33 032,6	104,2
Qo`ng`iroq	4 702,3	2,1 k	110 024,4	103,6
Mo`ynoq	239,6	107,2	11 265,6	104,1
Nukus	202,5	71,9	29 284,2	104,9
Taxiatsosh	7 747,2	96,7	29 800,3	107,7
Taxtako`pir	286,4	90,7	42 145,7	105,3

To`rtko'l	15 085,2	93,6	124 061,2	108,3
Xo`jayli	3 336,1	185,0	145 253,2	104,9
Chimboy	5 337,2	94,5	59 259,2	105,4
Shumanay	292,4	198,2	33 467,3	103,8
Ellikqal`a	1 791,8	2,8 k	88 931,1	103,5
Nukus sh.	163 801,1	2,1 k	319 210,1	92,5

2019 yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi respublika bo`yicha aholi jon boshiga 846,5 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 6,5 % ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-aprel oylarida o`tgan yilning shu davriga nisbatan respublikamizning barcha tumanlarida o`sish qayd etilib, eng yuqori ko`rsatkichlar Nukus shahri (1 530,5 ming so`m), Xo`jayli (1 225,0 ming so`m) va Taxtako`pir (1 063,5 ming so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Mo`ynoq (367,6 ming so`m), Kegeyli (371,7 ming so`m) va Taxiatosh (515,1 ming so`m) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich respublika tumanlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da
Qoraqalpog`iston Respublikasi	846,5	106,5
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	552,9	104,1
Beruniy	810,3	104,6
Qonliko`l	817,6	103,9
Qorao`zak	1043,4	104,6
Kegeyli	371,7	103,6
Qo`ng`irot	892,8	104,5
Mo`ynoq	367,6	102,9
Nukus	599,3	102,6
Taxiatosh	515,1	103,9
Taxtako`pir	1 063,5	104,6
To`rtko`l	660,4	104,5
Xo`jayli	1 225,0	104,6
Chimboy	560,2	103,2
Shumanay	607,2	103,5
Ellikqal`a	580,1	102,5
Nukus shahri	1 530,5	112,8

Jumladan, 2019 yilning yanvar-aprel oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 3,4 % ni tashkil etib, 53,6 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 4,8 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 99,7 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-aprel)

Yil boshidan respublika bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 412,7 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 15,4 %ga o`sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-aprel oylari yakunlariga ko`ra 232,3 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 101,0 %ni tashkil qildi. Ushbu sektorning umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 56,3 % ni tashkil qilmoqda. Ushbu ko`rsatkichni tumanlar bo`yicha tahlil qilganda, Beruniy, Qo`ng`iroq, Qorao`zak, Qonliko`l, Mo`ynoq, Taxtako`pir, Ellikqal`a va Nukus tumanlarida 100 % ni tashkil etgan.

Yirik va kichik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 43,7 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Xo`jayli (jamiga nisbatan ulushi – 96,0 %) Nukus shahri (39,7 %), va To`rtko'l (10,9 %) tumanlarida kuzatildi.

Tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mln.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mln.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Qoraqalpog`iston Respublikasi	412 692,1	115,4	180 435,8	141,2	232 256,4	101,0
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	2 793,2	77,0	221,5	20,4	2 571,7	101,1
Beruniy	17 710,6	100,3			17 710,6	101,3
Qonliko'l	3 720,5	101,2			3 720,5	101,2
Qorao`zak	666,6	101,0			666,6	101,0
Kegeyli	166,5	95,4	0,5	4,8	166,0	100,5
Qo`ng`irot	6 609,4	100,8			6 609,4	101,0
Mo`ynoq	229,7	100,5			229,7	100,5
Nukus	20 842,7	100,6			20 842,7	100,6
Taxiatosh	7 627,8	100,2	290,1	76,1	7 337,8	101,5
Taxtako`pir	3 015,0	100,8	0,1	0,6	3 014,9	101,6
To`rtko'l	10 966,0	91,6	1 190,4	52,1	9 775,6	100,9
Xo`jayli	91 732,5	149,6	88 059,0	152,7	3 673,6	100,9
Chimboy	5 305,7	92,9	370,9	43,5	4 934,7	101,6
Shumanay	49,2	87,2	2,3	23,7	46,9	100,5
Ellikqal`a	13 973,6	100,7			13 973,6	100,7
Nukus sh.	227 283,0	113,2	90 301,0	138,4	136 982,1	101,1

**Tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)**



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'ati Amudaryo (77,0 %) tumanida qayd etildi.